O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

JIZZAX VILOYAT PEDAGOGLARNI YANGI METODIKALARGA O‘RGATISH MILLIY MARKAZI

“ANIQ VA TABIIY FANLAR METODIKASI” KAFEDRASI

# “PEDAGOGIK TA’LIM, INNOVATSION G‘OYALAR VA TEXNOLOGIYALARNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARINI YARATISH VA UNI AMALIYOTGA JORIY ETISH”

Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi

(2023-yil, 15-iyun)

MATERIALLARI

# “CREATING THE SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASE OF PEDAGOGICAL EDUCATION, INNOVATIVE IDEAS AND TECHNOLOGIES AND THEIR IMPLEMENTATION INTO PRACTICE”

International scientific and practical online conference

(June 15, 2023 y)

MATERIALS

# «СОЗДАНИЕ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКОЙ БАЗЫ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ, ИННОВАЦИОННЫХ ИДЕЙ И ТЕХНОЛОГИЙ И ИХ ВНЕДРЕНИЕ В ПРАКТИКУ»

Международная научно-практическая онлайн-конференция

(июня 15, 2023 г)

МАТЕРИАЛЫ

JIZZAX – 2023

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI**

**JIZZAX VILOYAT PEDAGOGLARNI YANGI METODIKALARGA O‘RGATISH MILLIY MARKAZI**

**“ANIQ VA TABIIY FANLAR METODIKASI” KAFEDRASI**

# “PEDAGOGIK TA’LIM, INNOVATSION G‘OYALAR VA TEXNOLOGIYALARNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARINI YARATISH VA UNI AMALIYOTGA JORIY ETISH”

**Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi**
**(2023-yil, 15-iyun)**
**MATERIALLARI**

# “CREATING THE SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASE OF PEDAGOGICAL EDUCATION, INNOVATIVE IDEAS AND TECHNOLOGIES AND THEIR IMPLEMENTATION INTO PRACTICE”

**International scientific and practical online conference**
**(June  15, 2023 y)**
**MATERIALS**

# «СОЗДАНИЕ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКОЙ БАЗЫ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ, ИННОВАЦИОННЫХ ИДЕЙ И ТЕХНОЛОГИЙ И ИХ ВНЕДРЕНИЕ В ПРАКТИКУ»

**Международная научно-практическая онлайн-конференция**
**(июня 15, 2023 г)**
**МАТЕРИАЛЫ**

**JIZZAX – 2023**

***UDK 378 (077)***
***KBK 74 (J)***
***P 29***

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati tomonidan professional va oliy ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar, mavjud muammolar hamda navbatdagi ustuvor vazifalar to‘g‘risida o‘tkazilgan majlisning 2023-yil 27-apreldagi 39-son bayoni ijrosini o‘z vaqtida va samarali bajarish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 2-maydagi 118-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasida 2023-yilda Xalqaro va Respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik anjumanlar rejasiga asosan, Jizzax viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazida 2023-yil 15-iyun kuni “Pedagogik ta’lim, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarning ilmiy-nazariy asoslarini yaratish va uni amaliyotga joriy etish” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazildi.

Mazkur konferensiyani tashkil etishdan maqsadimiz tadqiqotchilarning, soha mutaxassislarining, ta’lim sohasida ishlayotgan pedagoglarning ilm-fanni rivojlantirish borasidagi islohotlarini muhokama qilish, dolzarb masalalarni hal qilishning samarali usullarini ishlab chiqishga taklif etishdir. Biz uchun muloqot, tajriba almashish va hamkorlik muhim.

The purpose of organizing this conference is to discuss the reforms in this field of science among researchers, specialists in the field, teachers working in the field of education in the development of science, to invite them to develop effective ways to address pressing issues. Communication, exchange of experience and cooperation in this area are important for us

Наша цель, организации данной конференции - обсудить реформы исследователей, специалистов в данной области, учителей, работающих в сфере образования, в развитии науки, предложить им разработать эффективные способы решения актуальных проблем. Для нас важно общение, обмен опытом и сотрудничество

| **Tahrir hay’ati:** | |
|---|---|
| A.Sh.Xolmurodov | Jizzax viloyati PYMO‘MM direktori, p.f.d., (DSc) |
| Sh.D.Abdurashidov | Jizzax viloyati PYMO‘MM direktor o‘rinbosari |
| J.A.Mardonqulov | “Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasi mudiri, p.f.f.d., (PhD) |
| A.Meliboyev | “Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari” kafedrasi mudiri, p.f.n., dotsent |
| Sh.Haydarov | “Tillarni o‘qitish va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi” kafedrasi dotsenti p.f.n. |
| M.Tilakova | “Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari” kafedrasi mudiri, p.f.f.d., (PhD) |
| P.Xolmatov | “Amaliy fanlar va maktabdan tashqari ta’lim texnologiyalari” kafedrasi mudiri p.f.n., dotsent |
| D.K.Norbekov | “Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi |
| M.M.Xolboyeva | “Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi |
| T.Sh.Avazov | “Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi |
| O.U.Ergashev | “Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi |
| Sh.A.Egamqulov | “Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi |
| M.M.Jabborov | “Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi |
| B.N.Qodirov | “Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi |
| F.M.Alimov | “Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi |

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning xaqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas’uldirlar.

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami Jizzax viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi Ilmiy-metodik kengashining 2023-yil 19-iyundagi navbatdan tashqari yig‘ilish qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

2. “Rivojlanishida nuqsoni bo’lgan bolalar bilan korreksion logopedik ish” o‘quv – uslubiy majmua.
3. M.Y.Ayupova. “ Logopediya” 10.08.2007-yil 4. Raxmanova V.S. “ Korreksion pedagogika va logopediya “ 2007-yil
5. M.Y.Ayupova. “Logopediya” O’zbekiston faylasuflar Milliy jamiyati. 2007-yil.
6. Xasanova M. M, Halimova O. M. RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALARNI O‘RGANISHGA KOMPLEKS YONDOSHUV. Международныйнаучныйжурнал №5 (100), часть2 «Научный импульс» Декабрь, 2022. b1784-1788.
7. Sobirov S.T. BOLALAR IJODIY QOBILYATINI RIVOJLANTIRISHDA GRAFIK RASSOMLAR HAYOTI VA IJODIY FAOLIYATINI ORGANISHNING MUHIMLIGI. ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯДА ИННОВАЦИЯЛАР 2-махсус сон. ISSN 2181-9513. 2020.

## PEDAGOGIK TA’LIM KLASTERI XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH

***Toshtemirova Saodat Abdurashidovna***
***Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti***

**Annotatsiya.** Toshkent viloyatida joriy etilgan mintaqaviy ta’lim klasteri ta’lim subyektlari o‘rtasidagi uzviylikka, ijtimoiy buyurtma ta’minlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi, muammolarni tezkor va qulay optimal variantlarini qabul qilishning eng qulay vositasi sifatida ta’lim turlarining texnologik hamkorligining yagona mobil axborot maydoni – pedagogik ta’lim klasterining ochiq ta’lim kontenti (xizmatlar platformasi)ni yaratish zarurati borligini ko‘rsatdi, aynan shu masalaning muammolari, maqsad va vazifalari hamda ahamiyati mazkur maqolada asoslab ko‘rsatilgan.

**Kalit so‘zlar**: ta’lim klasteri, uzviylik, tizimlilik, izchillik, tezkor aloqa, mobillik, ijtimoiy buyurtma, innovatsiya, integratsiya, pedagogik kadr, mexanizm, kasbga yo‘naltirish, tashxislash, metodologiya, elektron pedagogika, aralash ta’lim, bandlik, iqtisodiy taraqqiyot.

**Kirish**. Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ta’lim sifatini oshirish maqsadida “ta’lim mazmuni va sifatini oshirish, raqobatbardosh, yuqori bilim va ko‘nikmalarga ega oliy ma’lumotli pedagoglar tayyorlashda samarador bo‘lgan pedagogik ta’lim innovatsion klasterlarini joriy qilish” [1] mexanizmlari yanada takomillashtirilmoqda. Maktabgacha, umumiy o‘rta, professional va oliy ta’lim tizimlarida integratsion sifatni ta’minlash ko‘p jihatdan shunga qaratilgan o‘quv klasterlarini joriy qilishni taqozo etadi. Bu jarayonda ta’lim oluvchilarni uzluksiz, izchil va tizimli shaklda hayotga tayyorlash ishlari tashkil etiladi. Bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta’limning turli yo‘nalishlarida klaster subyektlarini bitta tizimga o‘zaro hamkorligini tashkil qilish orqali iste’molchilarga xizmat ko‘rsatish tashkil etilgan. O‘zbekistonda 2018-2019 yilardan Pedagogik ta’lim klasteri Chirchiq dvlat pedagogika universitetida Toshkent viloyati misolida joriy etilgan. Bugunga qadar Pedagogik ta’lim klasterining ilmiy nazariy asoslari ishlab chiqildi, subyektlar maqsadi va ularning vazifalari belgilandi, faoliyat mexanizmlarini amalga oshirish maqsadida maktab-laboratoriyalar tashkil qilindi. Biroq bu Pedagogik ta’lim klasteri muayyan bir hududdagi ma’lum bir subyektlar bilangina cheklanmoqda, buning asosiy sababi ta’lim muassasalaridagi, jarayon subyektlaridagi vaqt taqsimoti, ish yuki hamda muvofiqlashmagan yagona markazning tashkil qilinmaganligida deb hisoblash mumkin. Bu muammoning yechimi esa, o‘z navbatida pedagogik ta’lim klasteri xizmatlarini raqamlashtirish, platformasini ishlab chiqish natijasida amalga oshiriladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Mamlakatimizda pedagogik ta’lim klasterining ilmiy-nazariy asoslari, undagi uzluksizlik, uzviylik va izchillik va boshqa tamoyillari, uning innovatsion modeli hamda uni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari G‘.I.Muxamedov, Sh.Q.Mardonov, U.N.Xodjamqulov, J.E.Usarov, Sh.I.Botirova, S.A.Toshtemirova, N.M.Koshanova, G.N.Sharipova va boshqalarning ishlarida muayyan darajada yoritilgan. Bugungi kunda mazkur yo‘nalishda bir qator mahalliy tadqiqotchilar ilmiy izlanishlarni olib bormoqda.

**Natijalar.** Pedagogik ta’lim klasteri xizmatlarini raqamlashtirishning asosiy maqsadi ta’lim tizimiga yangi joriy etilgan ta’lim klasteri tizimida **turli darajadagi subyektlar (**maktabgacha

ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, professional ta'lim, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, malaka oshirish va qayta tayyorlash institutlari) va ta'limga **bilvosita aloqador tashkilotlar** (mahalliy hokimliklar, o'z-o'zini boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, nodavlat tashkilotlari va hokazo)ning umumiy maqsad atrofida birlashtirishga, inson kapitalini rivojlantirishda ta'lim klasterining imkoniyatlari bo'yicha multimedia mahsulotlarini ishlab chiqishga, ta'lim sifatini oshirishga, muammolarni bartaraf etishga qaratilgan o'zaro tezkor qaytar aloqani ta'minlash, iste'molchilar talablariga ko'ra xizmat ko'rsatish bo'yicha **ilmiy-ta'lim portali, amaliy xizmatlar platformasi**ni yaratishdan iborat.

**Muhokama.** Pedagogik ta'lim klasteri xizmatlarini raqamlashtirish natijasida ta'lim tizimidagi bir qator muammolar ***hal etiladi:***

***Birinchidan,*** ta'lim-fan-ishlab chiqarish uchligi o'rtasidagi integratsion jarayonlarni tashkil qilish murakkablashib bormoqda, bu uchlikning umumiy maqsadini aks etuvchi dastur va loyihalarni ishlab chiqish zarurati hal etiladi.

***Ikkinchidan,*** har qanday sohadagi iqtisodiy o'sish ta'lim va fanga innovatsion yondashishni talab qiladi, ayniqsa xalqaro tajribalarni, so'nggi fan texnika yutuqlarini ta'lim tizimiga, uning mazmuniga singdirishni taqozo qiladi. Bu muammo o'z navbatida pedagog kadrlar mas'uliyatini oshiradi, biroq bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda ham tizimli faoliyatning yo'lga qo'yilmaganligi, fan dasturlari mazmuni iste'molchining keyingi faoliyatiga mos tarzda ishlab chiqilmaganligi, nazariya va amaliyot o'rtasidagi integratsiyaning hali xanuz oqsayotganligi bilan bog'liq muammolar hal etiladi.

***Uchinchidan,*** kasbga yo'naltirish tizimida asosan texnika, meditsina, dasturlash, iqtisodiyot, halqaro dizayner, sohalariga e'tibor qaratilmoqda, bo'lajak pedagog kasbi bo'yicha ta'limning quyi bosqichidan innovatsion tashxislash usullarini joriy etish orqali aniqlash va variatsiyalangan sinflarni tashkil qilish hamda ularning shu yo'nalishdagi trayektoriyalarini belgilash, rivojlanish vektoridagi oqsashlar va muammolarda tezkor yordam ko'rsatish, jamiyatdagi faoliyatga nisbatan mobillikni oshirish kabi masalalarda o'zaro hamkorlikdagi ta'lim xizmatlari tashkil etishda oshkoralik, tezkorlik va optimallikni ta'minlaydi.

***To'rtinchidan***, tadqiqotchilikning bosqichlarini olib borishda ilmiy va uslubiy xizmat ko'rsatish masalasini tizimli yordamlashuvchi ilmiy-uslubiy xizmatlar tashkil qiladi.

***Beshinchidan,*** ta'lim klasteri subyektlari biri ota-onalar bo'lib, mazkur loyihada ular uchun ta'lim va tarbiya jarayonidagi samarali taklif va tavsiyalar taqdim qilinadi.

***Oltinchidan,*** bo'lajak pedagog kadrlarni ish bilan ta'minlash tizimidagi va muayyan hududdagi pedagog kadrlarga bo'lgan extiyojning inobatga olinmaganligi, umumta'lim maktablari va ta'limning boshqa turlari o'rtasida o'zaro hamkorlikning samarali tashkil qilinmaganligi, ta'lim turlari o'rtasidagi integratsiya jarayonlarining yetarli darajada ishlanmaganligi natijasida bugungi kunda hududning maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tizimida oqsoqliklar kuzatiladi, loyiha doirasida esa, ta'lim subyektlari hamda aholi bandligini ta'minlash bo'limlari bilan hamkorlikda aynan mana shu kadrlar masalasini hal etuvchi funksiya bajariladi [2].

Chirchiq davlat pedagogika universiteti ilmiy jamoatchiligi hududdagi xalq ta'limi va maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligini oshirish, ta'lim turlari o'rtasidagi o'zaro oqilona hamkorlikni va integratsiya jarayonlarini yo'lga qo'yishning ilmiy-amaliy yechimlarini topishda pedagogik ta'lim innovatsion klasterini maqbul yo'l sifatida tanladi. Pedagogik ta'lim klasteri xizmatlarini tashkil qilishni raqamlashtirishda o'z oldigan bir qator vazifalarni belgilab oldi.

Pedagogik ta'lim klasterining bugungi kundagi asosiy maqsadi ta'lim subyektlarining tezkor va mobil aloqalarini ta'minlash va ta'limdagi muammolarga xizmatlarni raqamlashtirish orqali yechim topish uchun mo'ljallangan elektron platformasini yaratish, muayyan hududdagi oilalar, maktabgacha, umumiy o'rta va oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish, mavjud muammolarni bartaraf etishga nisbatan yagona tizim asosida yondashish, elektron ta'lim kampusini yaratish, raqamli pedagogik ta'limni yaxlit tizim sifatida tadqiq qilishdan iborat.

**Innovatsion ta'lim klasteri onlayn kontentining asosiy mahsuloti ta'lim xizmatlari hisoblanadi.** Klaster, birinchi navbatda, faqatgina ta'lim xizmatlarini amalga oshirishga emas, balki

o‘zgaruvchan bozor sharoitida raqobatbardosh ta’lim berishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Raqobatbardosh ta’lim berish doimiy ravishda innovatsiyalarni, zamonaviylikni va talab hamda taklif mutanosibligini talab qiladi. Shu jarayonda ta’lim xizmatlariga yo‘naltirilgan faoliyat o‘sish ko‘rsatkichlarini namoyon qiladi.

Klaster onlayn kontenti (platformasi) shunday tizimki, uni tashkil qiluvchi komponentlarning integratsiyasi har bir subyektning yanada samaraliroq ishlashini ta’minlaydi va istisno buzilishlarga olib kelmaydi. Klaster bir qator ta’lim, ilmiy va ishlab chiqarish subyektlarining muayyan assotsiatsiyaga mexanik birlashishi emas, balki ularning o‘zaro yaqindan ta’siri va o‘zaro bog‘liqligi natijasida yuzaga keladi[3]. Bunday tashkilot alohida komponentlar va butun klasterning konvertatsiya qilinishini ta’minlaydi. Klaster ishi yangi sifatli mahsulot yaratish imkonini beradi.

Ta’limga nisbatan o‘ziga xos yangi yondashuv bo‘lgan klaster nafaqat hayot davomida ta’lim olish uchun shart-sharoitlarni ta’minlabgina qolmay, balki ta’limning uzluksizligini ta’minlaydigan tarkibiy qismlar o‘rtasidagi mavjud va istiqbolli aloqalarni qayta tiklashga imkon beradi. Pedagogik ta’lim klasteri xizmatlarini raqamlashtirish uchun pedagogik ta’lim sohasida bevosita va bilvosita shug‘ullanuvchi muassasalar bilan maqsadli onlayn hamkorlikni o‘rnatish orqali ta’lim klasteri subyektlarida ta’lim va tarbiya samaradorligini oshirishga ko‘maklashish lozim bo‘ladi. Shuningdek, pedagogika sohasida samarali vorisiylikni ta’minlash va eng yaxshi o‘quvchilarni pedagog kasbiga targ‘ib qilish, bu bo‘yicha tashxislash ishlarini yo‘lga qo‘yish, kasbga tayyorlash xizmatlarini tashkil qilish maqsadga muvofiq. Ma’lum bir hududning pedagog kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarini sifatli qondirish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil qilish, onlayn hamkorlikka xokimlik va ish bilan bandlik tashkilotlarini xam jalb qilish, pedagog kadrlarga bo‘lgan extiyojlar bo‘yicha ma’lumotlar yetkazish, pedagog kadrlarga extiyoji bo‘lgan ta’lim muassasalariga sifatli kadrlarni taklif qilish, ularning salohiyatini, ishga qodirligi aniqlash bo‘yicha iste’molchilar talabini o‘rganish va unga mutaxassislarni tayyorlash xizmatini tashkil qilish ta’lim klasteri xizmatlarini raqamlashtirish jarayonini sonlashtiradi va kutilgan natijani kafolatlaydi [4]. Ayniqsa, pedagogik ta’lim sohasidagi muammolar bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, ilmiy asoslangan innovatsion loyihalarni realizatsiya qilish osonlashadi. Yosh mutaxassislarning kasbiy ko‘nikmalarni egallash davrini qisqartirish maqsadida ta’lim mutaxassislarida innovatsion tajribaga ega bo‘lgan amaliyotlar bazasida tayyorlash muhiti yaratiladi.

Pedagogik ta’lim klasteri xizmatlar platformasida subyektlarga yetkaziladigan yangi avlod o‘quv, o‘quv-uslubiy, ilmiy adabiyotlar, vositalar va materiallar majmuasidan iborat didaktik ta’minot natijasida pedagogik ta’limda elektron pedagogikani yaratish jadallashadi.

Ta’lim tizimidagi mavjud muammolardan, o‘quvchi xususiyati, fan va ob’ekt xususiyat hamda tavsiflardan kelib chiqqan holda modifikatsion metodikalar ishlab chiqish, tasniflarga ajratish va turli shakllarda, audio, video, mul’timedia, QR-kodli va planshet tarzida iste’molchilarga yetkazish xizmati orqali ta’lim sifatini oshirishga erishiladi.

Mamlakatimizdagi mavjud kasblar indikatorlari, istiqbollari bo‘yicha ma’lumotlar yetkazib berish, kasb tanlash bo‘yicha o‘quvchilarga turli shakllarda tashxislash usullarini taqdim qilish, tashxislangan kasbga yo‘naltirish bo‘yicha rivojlantish vektorini belgilashga yordam berish, o‘z kasbini sevgan, o‘qituvchi kasbiga sodiqlik va fidoiyligi natijasida yuqori natijalarga erishgan soha vakillari bilan intervyular, onlayn suxbatlar olib borish, infografika taqdim qilish orqali kasbga yo‘naltirish tizimi rivojlanadi [5].

**Xulosa** o‘rnida aytish mumkinki, pedagogik ta’lim klasteri xizmatlarini raqamlashtirishning o‘ziga xos ilmiy, texnologik, ijtimoiy-iqtisodiy va moliyaviy ahamiyati mavjud. Pedagogik ta’lim klasterining inson kapitalini rivojlantirishdagi, ta’lim sifatini oshirishdagi ahamiyati katta. Uning ilmiy ahamiyati muayyan hududdagi oila, maktabgacha, umumiy o‘rta va oliy ta’lim muassasalari o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish, mavjud muammolarni bartaraf etishga nisbatan yagona tizim asosida yondashish, pedagogik ta’limni yaxlit tizim sifatida tadqiq qilishdan iborat. Bu o‘z navbatida so‘nggi fan-texnika yutuqlari va tadqiq natijalarining ilmiy ahamiyati olingan ilmiy xulosalardan ushbu yo‘nalishga oid ilmiy metodologik apparatni takomillashtirish hamda ilmiy tadqiqotchilik kompetensiyasi rivojlantirish, ochiq ta’lim kontentida natijaviy ilmiy maydon yaratishni belgilaydi. O‘quv adabiyotlarining, uslubiy-didaktik

mahsulotlarning, ta'lim va tarbiya vositalarining elektron yangi avlodi shakllantiriladi, pedagogik ta'lim klasterining elektron pedagogikasi yaratiladi. Hududning pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini sifatli qondirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil qilish, yosh mutaxassislarning kasbiy ko'nikmalarni egallash davrini qisqartirish, bo'lajak ta'lim mutaxassislarini innovatsion tajribaga ega bo'lgan amaliyotlar bazasida tayyorlash muhitini yaratish, ta'lim tizimidagi muammolarni tezkorlikda aniqlash va ularning yechimlari bo'yicha **elektron qaytar aloqa** shaklida taklif, tavsiya, metodika va texnologiyalar taqdim etish amalga oshiriladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risi"gi 213-son qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.04.2021 y., 09/21/213/0330-son.
2. Мухамедов Ғ.И., Ходжамқулов У.Н., Тоштемирова С.А. Педагогик таълим инновацион кластери / монография. – Тошкент, 2020. – 280 б
3. Khodzhamkulov, U. N., & Toshtemirova, S. A. (2022). Ways to improve the effectiveness of education in an integrated environment. *ISJ Theoretical & Applied Science, 06 (110),* 312-319.
4. Toshtemirova S. A. Ta'lim klasteri faoliyatida ochiq ta'lim kontentining zarurati. *Таълим ва инновацион тадқиқотлар (2022 йил № 3). – Б. 159-163.*
5. Тоштемирова С.А. Кластерли ёндашув асосида таълим сифатини ошириш / монография. -Тошкент: "ISHONCHLI HAMKOR», 2021. -188 б.
6. Тоштемирова С.А. Кластерли ёндашув асосида таълим сифатини ошириш // педагогика фанлари бўйича фалс.докт.дисс. Тошкент. 2021. – 198 б.

## TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA TA'LIM KLASTERI: IMKONIYAT, YUQORI SAMARADORLIK VA YUKSAK NATIJA

***Koshanova Nilufar Maxsudovna***
***Chirchiq davlat pedagogika universiteti***
***v.v.b.dots.nt., pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***
***koshanovanilufar512@gmail.com***

**Annotatsiya.** Ushbu maqolamizda dunyo tajribasida samarador usul sifatida namoyon bo'lgan klaster modelining xususiyatlari, imkoniyatlari va afzalliklari borasida fikr yuritilib, uning ta'lim sifatini ta'minlashdagi ahamiyati mahalliy, hamda xorijiy olimlar tadqiqot ishlari asosida o'rganilgan, hamda, dunyo tajribasida klaster yondashuvining ta'lim samaradorligidagi ahamiyati tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar.** globallashuv jarayoni, inson kapitali, zamonaviy ta'lim, innovatsiya, ta'lim sub'ektlari, kadrlar salohiyati, jahon tajribasi, ijtimoiy sheriklik, ijtimoiy buyurtma, ta'lim sifati.

**Аннотация.** В данной статье обсуждаются характеристики, возможности и преимущества кластерной модели, зарекомендовавшей себя как эффективный метод в мировом опыте, анализируется значение в эффективности образования.

**Ключевые слова.** процесс глобализации, человеческий капитал, современное образование, инновации, образовательные субъекты, кадровый потенциал, мировой опыт, социальное партнерство, социальный заказ, качество образования.

**Abstract.** In this state, the characteristics, possibilities, and advantages of the cluster model, which has been recommended as an effective method in the world's experience, are analyzed.

**Key words.** process globalization, human capital, modern education, innovation, educational subjects, personnel potential, human experience, social partnership, social order, quality education.

**Kirish.** Jahonda yuz berayotgan globallashuv jarayonlari insoniyat hamjamiyati oldiga dolzarbligi va qamrovi kun sayin ortib borayotgan talablarni qo'ymoqda. Ta'lim inson kapitaliga, raqobatbardosh va zamonaviy kadrlar tayyorlashga yo'naltirilgan soha bo'lib, jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatida qaraladi. Ta'lim tashkilotlarini zamonaviy ruhda isloh qilish, ta'lim subyektlari o'rtasida samarali hamkorlik tizimini yaratish bugungi kunning

*Masharipova Nasiba Ro'zmatovna* ………………………………………………………………………
Ta'lim tizimida sifat va samaradorlikka erishishda innovatsion texnologiyalar, xalqaro baholash tajribalar, fanlararo tadqiqot usullari: muammo va yechimlar
*Avazov Zahriddin* …………………………………………………………………………………….. *445*
Kasb-hunar maktablarida kasbga yo'naltirishning pedagogik asoslari
*Joldasov Ixtiyor Suyindikovich* ……………………………………………………………………….. *448*
Birlashgan arab amirliklarining markaziy osiyo davlatlari bilan aloqalari (1991-2023)
*Kamoliddinov Farrux Burxoniddin o'g'li* ……………………………………………………………… *450*
Oliy ta'lim muassasalarida grafik ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan talablar
*Ozodboyev Ismoil Odilboyevich* ............................................................................................ *453*
The importance of integrating skills in teaching
*Qodirov Bekmurod* ……………………………………………………………………………………… *455*
Oliy ta'lim muassasalari talabalarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari
*Raxmanova Muqaddas Qaxramonovna* ………………………………………………………………… *459*
Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish
*Raxmanova Muqaddas Qaxramonovna* ………………………………………………………………… *462*
Morfologik shakllar nomutanosiblikning umumnazariy masalalari
*Uralov Azamat Begnarovich* ………………………………………………………………………….. *465*
Таълим жараёнида талабаларни хорижий тиллардан касбий мобиллигини ривожлантиришнинг дидактик таъминотини такомиллаштириш модели
*Г.Суюнова* ………………………………………………………………………………………………. *468*
Цвет и свет: Ключевые инструменты для создания настроения и атмосферы в акварельной живописи
*Л.Ш.Халилов* …………………………………………………………………………………………… *472*
Inklyuziv ta'limni o'qitishda o'qituvchining kasbiy faoliyati va fazilatlari tahlili
*M.A.Tilakova* ……………………………………………………………………………………………. *474*
Двойная профессиональная компетенция как двойное содержание теоретические основы профессионального образования развитие системы
*Мирзарахмонова Шахноза Мирзаахмадовна* ………………………………………………………….. *477*
Давлатлараро ташқи туризмни ривожланиш шароитида туризм хавфсизлигининг аҳамияти
*Музаффаржон Мансуров* ………………………………………………………………………………. *483*
Инновационные подходы в изобразительном искусстве: «steam-модели»
*Р.Ш.Халилов, С.Зайниддинова, А.Раззакова, З.Файзиева* ……………………………………….. *485*
Уструшонанинг археологик ўрганилиш тарихи
*Холбоев Зиёдулла Тоирович* ………………………………………………………………………….. *489*
Касбий ривожланиш тенденцияларининг назарий асослари
*Қораев Самариддин, Хусанова Муқаддас* …………………………………………………………… *495*
Talabalarni olimpiada va tanlovlarda ishtrok etishda mustaqil ta'limning o'rni.
*Bekqulov Qudrat. Shaydulloyevich* …………………………………………………………………… *497*
Rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o'rganish va tasviriy faoliyat jarayonida nutqini rivojlantirish.
*Sobirov Sarvar Tursunmurotovich* ……………………………………………………………………. *500*
Pedagogik ta'lim klasteri xizmatlarini raqamlashtirish
*Toshtemirova Saodat Abdurashidovna* ………………………………………………………………. *503*
Ta'lim sifatini oshirishda ta'lim klasteri: imkoniyat, yuqori samaradorlik va yuksak natija
*Koshanova Nilufar Maxsudovna* ………………………………………………………………………. *506*
Chizma geometriyadan ma'ruza mashg'ulotlarida multimediali texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi
*Ataxanova Svetlana Orinbayevna* ……………………………………………………………………. *510*
Бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларини рангтасвир орқали касбий компетенсияни ривожлантириш
*Нуртаев Уринбай, Мансурова Мафтуна* ………………………………………………………………. *514*

Teaching drawing to young creative students through graphic programs and forming their artistic thinking
*Abdumajitov Avazjon Shuhrat o'gli* ………………………………………………………………………. 517
Chizmachilik fanlarini o'qitishda didaktik o'yinlar orqali o'quvchilarning idrok qilish faoliyatini faollashtirish.
*Jumayev Isroil Omandovlat o'g'li* ………………………………………………………………………. 519
Tarix fanini o'qitishda ishchi daftarlardan foydalanish
*Eshbekova Dilafro`z To`ychiyevna* ……………………………………………………………………… 522
Ta'lim tizimida qo'llaniladigan innovatsion pedagogik texnologiyalar
*Isroilova Barno Abdulxaqovna* ………………………………………………………………………….. 525
Ona tili darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish
*Nizomova Nodira Sadikjonovna* ………………………………………………………………………… 527
Iqtidorli yoshlar bilan ishlash, o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish va kasb-hunarga yo'naltirish tizimini takomillashtirishda kutubxonachilarning roli
*Muborak Ropiyeva* ………………………………………………………………………………………… 528
Ta'lim va tarbiya jarayonining psixologik asoslari
*Xaydarov Sherzodbek Xomidovich, Adilova Marg'uba Inoyatulla qizi* ………………………………… 531
Milliy o'quv dasturining yaratilishi va uning afzalliklar
*T.Avazov* …………………………………………………………………………………………………… 534
Innovatsion pedagogik ta'lim texnologiya usullarining ta'lim jarayonidagi afzalligi
*Tolipov Farrux Nurbekovich* …………………………………………………………………………….. 537
Maktab adabiyot darslarida mumtoz adabiy matnlardagi morfemalarning anglatgan ma'nolarini o'quvchilarga tushuntirish
*H.R.Nabiyev, Ibragimova Zebiniso* ……………………………………………………………………… 539
Bulutli texnologiyalardan foydalanish
*T.Sh.Avazov* ……………………………………………………………………………………………… 543

**“PEDAGOGIK TA’LIM, INNOVATSION G‘OYALAR VA TEXNOLOGIYALARNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARINI YARATISH VA UNI AMALIYOTGA JORIY ETISH”**

**Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya (2023-yil, 15-iyun) materiallari**. Jizzax 2023. 558 bet

**Manzil** Jizzax shaxar,100130, I.Karimov shoh ko‘chasi 6-uy,
Tel: (37222) 60823 Faks: (37222)61015
e-mail: jizzax_markaz@xtv.uz,
jiz.malakaoshirish@exat.uz

**QR kod**